



UDK: 81'33

Iroda IBRAXIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi, PhD
Email: iroda0705@gmail.com
ORCID: 0009-0002-6225-6522

GulDU universiteti dotsenti, PhD A.Axrrov taqrizi asosida

LANGUAGE CHOICE AND LINGUISTIC IDENTITY IN BILINGUALISM

Annotation

Individuals who speak two or more languages may exhibit specific behaviors and speech strategies when communicating in different languages. The process of acquiring a new language contributes not only to the development of linguistic competence but also to the formation of a "second language identity." Furthermore, a person's stance on a particular issue is often closely linked to the language they use, with language choice affecting both the style and content of their expressions. In speech produced in different languages, emotional states such as shame, anger, or embarrassment may manifest differently, illustrating the complex relationship between language and emotion. Moreover, expressing the same idea in different languages significantly influences its impact and reception. This article analyzes the theoretical and practical aspects of these issues.

Keywords: multilingualism, linguistic identity, second language identity, bilingualism, language choice, code-switching, linguistic interference, sociolinguistic factors.

ВЫБОР ЯЗЫКА И ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ В БИЛИНГВИЗМЕ

Аннотация

Лица, говорящие на двух или более языках, могут проявлять специфическое поведение и речевые стратегии при общении на разных языках. Процесс освоения нового языка способствует не только развитию лингвистической компетенции, но и формированию «идентичности второго языка». Кроме того, позиция человека по конкретному вопросу часто тесно связана с языком, который он использует, а выбор языка влияет на стиль и содержание высказываний. В процессе речи на разных языках эмоциональные состояния, такие как стыд, гнев или смущение, могут проявляться по-разному, что демонстрирует сложную взаимосвязь между языком и эмоциями. Более того, выражение одной и той же мысли на разных языках существенно влияет на её воздействие и восприятие. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты этих вопросов.

Ключевые слова: многоязычие, лингвистическая идентичность, идентичность второго языка, билингвизм, выбор языка, смешение кодов, лингвистическая интерференция, социолингвистические факторы.

BILINGVIZMDA TIL TANLOVI VA LISONIY IDENTIKLIK

Annotatsiya

Ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlashuvchi shaxslar turli tillarda muloqot qilganda o'ziga xos xulq-atvor va nutqiy strategiyalarni namoyon qilishi mumkin. Yangi tilni o'zlashtirish jarayoni nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki "ikkinchi til identikli"ni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsning muayyan masalaga nisbatan pozitsiyasi ko'pincha u foydalanayotgan til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til tanlovi uning fikr bildirish uslubiga va mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Turli tillarda ifodalangan nutq jarayonida uyat, g'azab yoki hijolatlik kabi emotsional holatlar turlicha namoyon bo'lishi mumkin, bu esa til va hissiyot o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ko'rsatadi. Bundan tashqari, bir xil fikrning turli tillarda ifodalanishi uning ta'sir kuchi va qabul qilinish darajasiga sezilarli ta'sir etadi. Ushbu maqolada mazkur masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ko'p tillilik, lisoniy identiklik, ikkinchi til identikli, bilingvizm, til tanlovi, kodlar aralashuvi, lingvistik interferensiya, sotsiolingvistik omillar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.Devale bir tildan ikkinchisiga o'tganda insonda identiklik o'zgarishini o'rganib, bunday holat yuz beradigan insonlarni "ko'p tilli xameleonlar" deb ataydi. Axir xameleonlar ham atrof-muhitga monand ravishda o'z tusini o'zgartiradi-da. J.Devalening xulosalashicha, insonlar o'zgarish qachon sodir bo'lishini bilishmaydi. Bunday o'zgarish tabiatan dinamik bo'lib, ular ba'zan yoshdagi farq, ta'lim darajasi va chet tili hayajoni sabab o'zlarini boshqacharoq his qilishlari mumkin. Ushbu nuqtayi nazar, albatta, tilshunoslik va psixolingvistika tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega, chunki ko'p tillilik shaxsning ijtimoiy va madaniy muhitga moslashuvchanligini oshiradi. Biroq, ushbu jarayon har doim ham faqat bexabar yoki avtomatik ravishda sodir bo'lmaydi. Ba'zi hollarda, shaxslar bir tildan ikkinchisiga o'tishda o'z identikliğini ongli ravishda boshqarishlari mumkin. Masalan, kommunikativ strategiyalar, kod almashtirish yoki ijtimoiy maqomga moslashish uchun til tanlash shaxsning ongli qarorlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, identiklikning o'zgarishi nafaqat tabiiy va dinamik jarayon sifatida, balki ijtimoiy va psixologik omillar

ta'sirida ongli ravishda amalga oshishi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim.

J.Makorter talqinicha, insonlar turli tillarda gapirganda o'zlarini turlicha his qilishlari odatda ikkinchi tilni til egasi darajasida bilmasliklari sabab yuz beradi. Buning sababi so'ralganda ular ko'pincha ikkinchi tilda gapirganda o'zlarini birinchi tilda gapigandagidek aqli his qilmasliklarini, yoxud qo'polroq gapirishlarini bildirishgan [1]. Ushbu izoh ba'zi holatlar uchun mos kelsa-da, faqat til bilimining darajasi so'zlashuv tili o'zgariganda identiklikdagi o'zgarishning kuzatilishi hodisasini to'liq tushuntirish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki tabiiy bilingvallar (ikkinchi tilni ham ona tilidek egallagan shaxslar) ham turli tillarda gapirganda o'zlarini turlicha his qilishlari mumkin. Bu holat shaxsning faqat til bilimi darajasi bilan emas, balki har bir tilda shakllangan ijtimoiy rollari, madaniy jihatdan qabul qilingan me'yorlar va hatto shu tilda ifodalanadigan hissiy tajribalar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunday yondashuv o'rganilayotgan jarayonning murakkab tabiati va ko'p omilliligi haqida yetarlicha to'liq tasavvur bera olmaydi, deb hisoblaymiz.

tilli oilalarni o'z ichiga olgan tilshunos Annik De Xauverning xulosalariga ko'ra, OPOL usuli 75% hollarda muvaffaqiyatli bo'lgan [12].

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ko'p tili shaxs chet tilida so'zlaganda, o'zini boshqa insondek his qilishi, ya'ni o'zgacha identifiklikni namoyon etishi mumkin. Ko'p tili shaxsning turli vaziyatlarda turli tilni tanlashi uning ongidagi vaziyat, tillarga

bo'lgan munosabati, mavzu tanlovi va til bilan bog'liq emotsional hamda axloqiy qarashlariga chambarchas bog'liq. Mazkur tanlov shaxsning nafaqat mavjud vaziyatda namoyon qilayotgan identifikligidan, balki emotsional asosga ko'ra tanlangan tilning madaniy va lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqib shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. McWhorter J. H. *The Language Hoax*. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 24 p.
2. Pavlenko A. *Bilingual Minds: Emotional Experience, Expression, and Representation*. – UK, Frankfurt Lodge: *Multilingual Matters*, 2006. – 324 p.
3. Heller M. *Bilingualism as Ideology and Practice*. In M. Heller (Ed.), *Bilingualism: A Social Approach*. Palgrave Advances in Linguistics. // London: Palgrave Macmillan, 2007. – pp 1-22.
4. Siebenhütter S. *The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity*. // *Ampersand*. 2023. Volume 10. 100123. – pp. 1-18.
5. Blackledge A., Creese A. *Multilingualism: A Critical Perspective*. – New York: Continuum, 2011. – 255 p.
6. Otsuji E., Pennycook A. *Metrolingualism: Fixity, Fluidity and Language in Flux*. // *International Journal of Multilingualism*. 2010. № 7(3). – pp 240-254.
7. Backhaus P. *Linguistic Landscapes: A Comparative Study of Urban Multilingualism in Tokyo*. – Clevedon, UK: *Multilingual Matters*, 2007. – 158 p.
8. Lončar I. *Forming Identity through Foreign Language Learning*. MA ... thes. – Zagreb, 2020. – P. 8.
9. Norton B. *Identity and Language Learning: Gender, Ethnicity, and Educational Change*. – Harlow, England: Pearson Education, 2000. – 173 p.
10. Pavlenko A., Blackledge, A. (Eds.). *Negotiation of Identities in Multilingual Settings*. – Clevedon, UK: *Multilingual Matters*, 2004. – 312 p.
11. Zokirov M.T. *Lingvistik interferensiya va uning o'zbek-tojik bilingvizmida namoyon bo'lishi*. Filol. fan. nom...diss. – Toshkent, 2007. – B.34.
12. De Houwer A. *Parental language input patterns and children's bilingual use*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 419.